

O'QUV DASTUR PASPORTI

O'quv dastur uzluksiz tibbiy va farmasevtik ta'lim muvofiqlashtiruvchi kengashning
2024 yil 29 martda Sog'liqni saqlash vazirligi **105-sonli buyruqi** asosida
tasdiqlangan.

Amal qilish muddati 2026 yil gacha

Ta'lim muassasasi nomi	Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazi
Kafedra/ bo'lim	Oilaviy tibbiyot kasb kasalliklari kursi bilan
O'quv dastur nomi	“BIRLAMCHI TIBBIY SANITARIYA MUASSASALARIDA AXOLI ORASIDA PROFILAKTIKA VA SKRINING ISHLARINI OILAVIY SHIFOKOR AMALIYOTIGA JORIY QILISH“
O'qish turi	Mavzuviy malaka oshirish
O'quv dastur muallifi/ mualliflari	G'.S. Xalimbetov, E.I. Musabaev, G.N.Rakhimova, G.M.Tulyabayeva, M.A. Gafur-Axunov, E.Dj. Isxakov, D.A. Xasanova, R.A. Nurmuxamedova, M.S.Masharipova
Siklning umumiy soati	36 kredit

Siklda dars beradigan o'qituvchi va trenerlar



DSc., dotsent,
G'.S. Xalimbetov



PhD., dotsent
D.A. Xasanova.



t.f.d., dotsent
R.A. Nurmuxamedova



PhD, dotsent
M.S. Masharipova



Assistent
F.R. Kdirbaeva

Maqsad

Birlamchi tibbiy sanitariya muassasalari amaliyotida 6 ta yo'nalish bo'yicha (2-10 yoshli bolalarni gelminozgatekshirish, 3-18 yoshli bolalarni onkogematologik tekshiruvdan o'tkazish, 40 vaundan katta yoshlilarni qandli diabet va gipertoniya tekshirish, 35-55 yoshdagi ayollarni bachadon bo'yni saratoniga tekshirish, 45-65 yoshli ayollarni ko'krakbezi saratoniga tekshirish, surunkali kasalligi bor fuqarolarni sil kasalligigatekshirish) oilaviy shifokorlar professional kompetensiyalarining takomillashtirish asosida skrining ishlarini olib borishni sifatli bajarish, 6 ta yo'nalish bo'yicha kasalliklarni kelib chiqish sababini va holatlarini erta aniqlash mahoratini oshirish, samarali davolash, profilaktika tadbirlarini amalga oshirish bo'yicha kasbiy bilim va ko'nikmalarni mukammallashtirish va yangilashdan iborat.

Siklga taklif qilingan mutaxassislar - kontingent

O'quv dastur birlamchi birlamchi tibbiy sanitariya yordami muassasalarida faoliyat yurituvchi oilaviy shifokorlar uchun mo'ljallangan.

Sikl vazifalari

- Tibbiyot xodimlarining bilim va ko'nikmalarini takomillashtirish orqali 6 ta yo'nalish bo'yicha skrining mexanizmlarini amaliyotga joriy etishga ko'maklashish;
- 6 ta yo'nalish bo'yicha skrining muddatlarini maqsadli belgilash va ko'riklar va patronaj tizimini tartibli amalga oshirish;

- Aholi o'rtasida eng keng tarqalgan gelmintozlar, parazitozlarni zamonaviy tashhisoti va jahon talablariga mos davolash uslublarini va tamoyillarini, yangi kasbiy bilim, mahoratini va ko'nikmalarni shakllantirish;
- 2-10 yoshli bolalarni gelminozga skriningdan o'tkazish, aholi o'rtasida tarqalishini oldini olish maqsadida profilaktika va reabilitatsiya ishlarini bajara olishlarini ta'minlashini takomillashtirish;
- Onkogematologik kasalliklarni skriningini olib borish, tashhisni yangi klassifikatsiyalar asosida shakllantirish, klinik protokollar asosida davolash bo'yicha nazariy bilimlarini yangilash, kiritilgan o'zgarishlarni amaliyotga tadbiq eta olishni, yangilangan takomillashgan davolash usullarini qo'llashni o'zlashtirish, zamonaviy tibbiy yordamni ko'rsata olish;
- 40 yoshdan oshgan aholi orasida arterial gipertenziya holatini skrining qilish, AG tashxislash ko'nikmalarini egallash, klinik protokollar asosida xavf omillarini stratifikatsiya qilish, davolash boyicha nazariy bilimlarini yangilash, AG asoratlarni oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlarni tadbiq qilish;
- 40 yoshdan oshgan aholi orasida qandli diabet skriningini olib borish, tashhisini yangi klassifikatsiyalar asosida shakllantirish, klinik protokollar asosida davolash bo'yicha nazariy bilimlarini yangilash, xavf omillari mavjud insonlarda prediabet holatini erta tashxislash;
- Bachadon bo'yni saratonini erta bosqichlarida aniqlashda tashxislashning zamonaviy usullarini qo'llash, bachadon bo'yni saratonini differensial tashxislash va xavf guruxiga kiruvchi ayollarni skriningdan o'tkazish;
- Sut bezi saratonini erta bosqichlarida aniqlashda tashxislashning zamonaviy usullarini qo'llash, ularni amaliyotga tadbiq qilish, sut bezi saratonini differensial tashxislashni va xavf guruxiga kiruvchi

	ayollarni skriningdan o'tkazish; - Tibbiyotning birlamchi bo'g'inida sil kasalligini barvaqt aniqlash, sil kasalligi tashxisotida zamonaviy usullarini qo'llash va uning profilaktik chora-tadbirlari majmuasi bo'yicha bilimlarini takomillashtirish - Sog'lom turmush tarzini va tibbiy madaniyatni shakllantirish, aholi jamoat salomatligini ta'minlash tamoyillarini amaliyotga tatbiq qilish; - To'g'ri ovqatlanish, jismoniy faollik va zararli odatlar to'g'risida maslahat berishda asosiy tamoyillar ko'nikmalarini shakllantirish; - 6 yo'nalish kasalliklari bo'yicha zamonaviy klinik protokollar va standartlar bilan tanishtirib, ular asosida ishlash ko'nikmalarini shakllantirish; - Kiritilgan o'zgarishlarni amaliyotga tatbiq eta olishni va yangilangan, takomillashgan davolash usullarini qo'llash va zamonaviy tibbiy yordamni ko'rsata olishda bor bilimlarini chuqurlashtirish.
Sikl tarkibi	1 modul. Aholi orasida 2-10 yoshli bolalarda gelminozga qarshi skrining o'tkazish chora-tadbirlari. 2 modul. Aholi orasida 3-18 yoshli bolalarda onkogematologik kasalliklar bo'yicha skrining o'tkazish chora-tadbirlari. 3 modul. Aholi orasida 40 va undan katta yoshlilarni qandli diabet va gipertoniya ga qarshi skriningdan o'tkazish chora-tadbirlari. 4 modul: Aholi orasida 35-55 yoshdagi ayollarni bachadon bo'yni saratoniga qarshi skriningdan o'tkazish chora-tadbirlari. 5 modul: Aholi orasida 45-65 yoshli ayollarni ko'krak bezi saratoniga qarshi skriningdan o'tkazish chora-tadbirlari. 6 modul: Aholi orasida surunkali kasalligi bor fuqarolarni sil kasalligiga qarshi skriningdan o'tkazish chora-tadbirlari.
O'qish bazalari	48 Oilaviy poliklinika, Toshkent shahri, Shayxontoxur tumani, Abay ko'chasi 5 uy. Hamda sayyor sikllarda belgilangan o'quv bazalarida.



Simulyatsion asbob/uskunalar



